Tadbirkorlik faoliyatida mijozlar bilan barqaror aloqalarni o'rnatishda CRM strategiyalarining roli.....	860
Xalilova Nafisa Komilovna	
Ways to improve the efficiency of banking services in our country	863
Muminova Masuda Bakhtiyorovna	
Agrar sohada investitsion loyihalarni tutgan o'rni va o'ziga xos jihatlari.....	867
Utanov Bunyod Kuvandikovich	
Анализ тенденций развития инновационной деятельности свободных экономических зон узбекистана.....	872
Ачилова Ширин Шавкат кизи	
Korxonani boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari	880
Nazarov Sherzod Abdusattor o'g'li	
Роль акционерных обществ в национальной экономике: анализ вклада крупных акционерных обществ в валовой внутренний продукт Узбекистана, их роль в создании рабочих мест и осуществлении инновационной деятельности	884
Халекеева Зоя Пирниязовна, Эшов Алишер Ахтамович	
Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mohiyati va nazariy asoslari	888
Ashurov Azizbek Asqaraliyevich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining ahamiyati	892
Xakimova Gulzora Jamshidovna	
Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko'rsatkichlari.....	896
Xudoyorova Mehrangiz	
Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalalari.....	901
Xomidova Kamola G'olib qizi	
"Silk road stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari	907
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov	
Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorining rolini oshirish mexanizmlari.....	916
Kamilova Iroda Xusnitdinovna	
Transport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishning respublikamizdagi ahamiyati.....	921
Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi	
Banklarda kredit operatsiyalari hisobi va tahlilini takomillashtirish yo'llari.....	927
G'olib Tashmanov, Hilolaoy Egamberdiyeva	
Innovatsion iqtisodiyotda telemeditsina xizmatlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.....	933
S.M. Raximova	
Marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni, turlari va bozorni segmentlarga ajratish masalalari.....	937
Valiyeva Aziza	
G'allachilik klasterlarini shakllantirishning zarurati, bosqichlari va faoliyatining xususiyatlari.....	942
Ilmuratov Shavkat Maxsumovich	



Boshqaruv hisobi tizimida budjetlashtirishning nazariy-metodologik jihatlarlari	949
Urmanova Umida Xakimdjanoyna	
Пути обеспечения инвестиционной привлекательности коммерческих банков узбекистана на основе зарубежного опыта	954
Тилеумуратов Азамат Азатович	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	959
Ozatbekov Yusupxon Farhod o'g'li	
Mamlakatimizning eksport imkoniyatlari va muammolari.....	964
Ansabxon ZAKIROV	
Цифровизация и прогнозные параметры экспортного потенциала субъектов малого бизнеса	967
Мирзахаликов Бобир Бахтиёрович	
Зелёный энергопереход как фактор устойчивого развития энергетики Узбекистана.....	971
Юсупов Ёкуб Рустамович	
Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков	978
Кадилова Хадича Тураевна	
Yashil iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillari.....	983
Israilova Shoira Turg'unovna	
Davlat moliyaviy nazorati organlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	987
Zuparov Abzaljon Batirjonovich	
Методика расчета устойчивого развития предприятий тэк на основе сводных интегральных индексов.....	991
Г.Ж. Аллаева	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....	995
Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	
Davlat fiskal va monetar siyosatining vujudga kelishi.....	1002
Xudaybergenova Nigora Turgunboyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning rolini oshirish	1005
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Xarajatlar hisobini mhxs asosida tan olishning o'ziga xos xususiyatlari	1010
Xaydarova Surayyo Nasirdinovna	
Zamonaviy turizm yo'nalishlari yangiliklarini sohaga tadbqiq etish va turizm bozorini rivojlantirishda aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1016
Sangirov Utkir Xudoyberdiyevich	
Sanoat korxonalarining raqobatdoshligini ta'minlash salohiyati	1021
To'raev Sardorbek To'raevich	
Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari	1025
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Agrar soha taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli.....	1031
Ko'chqarov Fayzullo Abdujabborovich, Mamatov Baxadir Safaraliyevich	
Оценка влияния введения цифровой валюты на денежную сферу	1041
Якубова Ш.Ш.	
Importance of staff service quality at uzbek national restaurants in uzbekistan.....	1046
Shodiyona Sanginova	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	1051
Azizova Zilola Lochin qizi	
Biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlarini sifatli tayyorlash masalalari.....	1057
Shabnam Djumaniyazova	



Hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda xorijiy tajriba.....	1064
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
To'qimachilik mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida yevropa ittifoqiga eksport qilish imkoniyatlari.....	1071
Raximova Moxigul Isroiljanovna	
Natural Language Processing of Cognitive Metaphors in Eco-Marketing	1074
Bakhtiyor Djurakulovich Safarov, Abdusaidova Gulhayo Bakhridin qizi	
Sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni	1079
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning chiziqsiz modellari	1083
Shirin Zafar qizi Tursunxodjayeva	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	1090
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida soliq qarzdorligini undirish mexanizmining soliq ma'muriyatchiligidagi o'ziga xos xususiyatlari.....	1097
O'taganov Anvar Nurxonovich	
Analysis of factors affecting certification in the production of textile industry products.....	1103
Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish	1106
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	



ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH VA UNING IJTIMOIIY- IQTISODIY SAMARASINI OSHIRISH

Xidirov Shohrux Bobir o'g'li

O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati

markazi davlat muassasasi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada organik qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda organik qishloq xo'jaligi tushunchasining ilmiy talqini, uning dunyo bozoridagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari batafsil yoritiladi. Maqolada organik qishloq xo'jaligiga oid turli mamlakatlarda qabul qilingan atamalar, ushbu sohaga tegishli tahliliy statistik ma'lumotlar va organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishidagi takliflar keltirilgan. Shuningdek, organik mahsulotlar eksportini oshirish hamda ekologik toza va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari yaratish orqali xalqaro bozorlarda milliy mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: organik qishloq xo'jaligi, ekologik toza mahsulotlar, xalqaro standartlar, organik mahsulotlar eksporti, qishloq xo'jaligi samaradorligi, barqaror rivojlanish, xalqaro bozorda raqobatbardoshlik.

Abstract: This article analyzes organic agriculture and its economic efficiency, as well as processes for the production of environmentally friendly products. The research details the scientific interpretation of the concept of organic agriculture, its place in the world market and development trends. The article presents the terms adopted in different countries regarding organic agriculture, analytical statistics related to this field and proposals for the development of organic agriculture. Also, opportunities to increase the competitiveness of our national products in international markets by increasing the export of organic products and creating ecologically clean and nutritious food products were considered.

Key words: organic agriculture, environmentally friendly products, international standards, export of organic products, agricultural efficiency, sustainable development, competitiveness in the international market.

Аннотация: В данной статье анализируется органическое сельское хозяйство и его экономическая эффективность, а также процессы производства экологически чистой продукции. В исследовании подробно описана научная интерпретация понятия органического сельского хозяйства, его место на мировом рынке и тенденции развития. В статье представлены принятые в разных странах положения относительно органического сельского хозяйства, аналитическая статистика, связанная с этой областью, и предложения по развитию органического сельского хозяйства. Также были рассмотрены возможности повышения конкурентоспособности нашей национальной продукции на международных рынках за счет увеличения экспорта органической продукции и создания экологически чистых и питательных продуктов питания.

Ключевые слова: органическое сельское хозяйство, экологически чистая продукция, международные стандарты, экспорт органической продукции, эффективность сельского хозяйства, устойчивое развитие, конкурентоспособность на международном рынке.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida aholi sonining oshib borishi yetarli ozuqa bazasini yaratishni taqozo etmoqda, buning ustiga sifatli ekin maydonlari ham qisqarib bormoqda, bu esa mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanib, to'yimli va ekologik toza mahsulotlar yaratishni talab etadi. Shu bilan birga, jahon bozorida mahsulotlarga qo'yilgan sifat va xavfsizlik talablarining tobora kuchayib borishi respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlash uchun qo'shimcha choralar ko'rishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son¹ Farmonida ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yuklatilgan. Ushbu yo'nalishning 54-maqsadida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish bo'yicha islohot va ushbu islohotga olib boruvchi amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Aynan shu yo'nalishda qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

¹ <https://lex.uz/docs/6600413>



qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash, respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning yeksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish kabilab belgilab berilgan. [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 18 maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5995-son Farmoniga asosan Respublikada "Organic" va "Global G.A.P." xalqaro standartlari talablariga javob beradigan mahsulot turlarini ishlab chiqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirish tizimlarini takomillashtirish, qishloq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, eksport geografiyasini oshirish, shu bilan birga, mamlakatimizning organik mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatini oshirish kabi islohotlarni amalga oshirilishi belgilangan [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, organik qishloq xo'jaligi tushunchasiga turlicha ilmiy yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.V. Peshkov "organik qishloq xo'jaligi – bu ishlab chiqarishning texnologik zanjiri bo'lib, unda xomashyoni tayyorlashdan tortib, toki yakuniy mahsulot tayyorlashgacha bo'lgan jarayonlar ekologik standart talablariga mos kelishi joiz" deb ta'kidlagan. [3]

S.A. Xaritonovning ta'kidlashicha, "organik ya'ni inson organizmi uchun zararsiz qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishga ta'rif berish uchun ko'p yondashuvlar mavjud. U yoki bu atamani qo'llash maqsaddan kelib chiqadi. Organik qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar – bu ishlab chiqariladigan mahsulotning tabiiyligi va ekologik jihatdan tozaligidir" deb izohlagan. [4]

M.G.Olegovning fikricha, "Organik qishloq xo'jaligi agrar ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish imkonini beruvchi usul bo'lib, u barqaror rivojlanish maqsadlarining uchta talabiga mos keladi: iqtisodiy barqarorlik; ekologik barqarorlik va ijtimoiy barqarorlik". [5]

A.Yu.Yegorov olib borgan ilmiy ishlarda "organik oziq-ovqat – bu texnogen o'g'itlar, pestitsidlardan foydalanilmaydigan dehqonchilik tizimining mahsulotidir" deb izoh berilgan [6]

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, "organik qishloq xo'jaligi" atamasining iqtisodiy mohiyatini talqin etishga turlicha yondashuvlar uchrasada, ularning mazmuni asosida inson organizmiga zarar keltirmaygan ekologik toza va tabiiy mahsulotni ishlab chiqarish yotadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida tahlil qilish, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining dunyo bo'yicha tovar aylanmasi 2023-yilda 227,2 mlrd yevroni tashkil etgan bo'lsa, bu bo'yicha yetakchi mamlakatlar sifatida AQSH (80,7 mlrd. yevro), Germaniya (22,0 mlrd. yevro) va Fransiya (18,3 mlrd. yevro) keltirish mumkin.

Organik qishloq xo'jaligi ana'naviy qishloq xo'jaligi yuritishga muqobil variant sifatida dunyoning ko'p mamlakatlarida tarqalmoqda, biroq u turli mamlakatlarda turlicha nom bilan yuritiladi (1-jadval).

1-jadval. Turli mamlakatlarda organik qishloq xo'jaligi tushunchasini ifodalovchi terminlar².


Mamlakatlar	Qabul qilingan termin
Avstriya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Fransiya	Biologik qishloq xo'jaligi
Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Ispaniya	Ekologik qishloq xo'jaligi
Avstraliya, Angliya, AQSH, Gruziya, Rossiya Federatsiyasi	Organik qishloq xo'jaligi
Kanada	Biodinamik qishloq xo'jaligi
Finlyandiya	Tabiiy qishloq xo'jaligi
Estoniya	Ekologik sof qishloq xo'jaligi

Bugungi kunda organik qishloq xo'jaligi jahon trendi hisoblanadi. Organik qishloq xo'jaligi tadqiqotlari institutining (FiBL) ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda 72,3 mln. gektar maydonda 3 mln. birlikka yaqin organik mahsulot ishlab chiqaruvchi ro'yxatga olingan. Organik qishloq xo'jaligi bo'yicha xalqaro bozorlardagi savdo aylan-

2 Манба: муаллиф таҳлили асосида ишлаб чиқилган.



masi 2018-yilda 96,7 mlrd yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda esa bu raqam 120 mlrd AQSH dollardan oshib ketdi (1-rasm).



1-rasm. Jahon organik oziq-ovqat bozori tovar aylanmasi dinamikasi, mlrd. doll.

Qishloq xo'jaligi biznesining asosiy muammosi nafaqat o'sib borayotgan aholini qanday oziqlantirishni aniqlashga harakat qilish, balki iqlim o'zgarishiga moslashish va uni yumshatish choralarini ko'rishda ham buni amalga oshirishdir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib organik mahsulotlar yetishtirish tizimini takomillashtirish va ularning savdosini jadallashtirish hamda eksportini yo'lga qo'yish mamlakatlar farovonligiga katta hissa qo'shadi.

Quyida keltirilgan 2-jadvaldan ma'lumki, dunyo bo'ylab 2019-yilda 187 ta mamlakat bo'ylab 72,3 mln. gektar yerda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. Organik yer maydoni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni Avstraliya (35,7 mln. ga), Argentina (3,7 mln. ga) va Ispaniya (2,4 mln. ga) mamlakatlari qo'lga kiritgan bo'lsa, organik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilar soni bo'yicha Hindiston (1 366 226 birl.), Uganda (210 353 birl.) va Efiopiya (203 602 birl.) mamlakatlari yetakchi bo'lgan.

2-jadval. Organik qishloq xo'jaligi eng yuqori rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlari, (2019-yil)³.

Ko'rsatkichlar	Jahon bo'yicha o'rtacha	Eng yuqori ko'rsatkichga ega (Top) mamlakatlar
Organik qishloq xo'ja-ligiga ega mamlakatlar	187 ta	
Organik qishloq xo'jaligi yer maydoni hajmi	72,3 mln. ga	Avstraliya (35,7 mln. ga) Argentina (3,7 mln. ga) Ispaniya (2,4 mln. ga)
Jami qishloq xo'jaligi yerlarida organik maydonlar salmog'i	1,5 %	Lixtenshteyn (41,0 %) Avstriya (26,1 %) Sao Tome (24,9 %)
Organik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilar soni	3,1 mln. birlik	Hindiston (1 366 226 birl.) Uganda (210 353 birl.) Efiopiya (203 602 birl.)
Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori tovar aylanmasi	106,4	AQSH (44,7 mlrd. Yevro) Germaniya (12,0 mlrd. Yevro) Fransiya (11,3 mlrd. Yevro)
Aholi jon boshiga organik mahsulotlar iste'moli	14,0 Yevro	Daniya (344 Yevro) Shvetsariya (338 Yevro) Luksemburg (265 Yevro)
Organik mahsulot yetishtirishni qonunchilik bilan tartibga soluvchi mamlakatlar	108 ta	
Organik qishloq xo'jaligi harakati xalqaro federatsiyasi (IFOAM) vakolatxonalari soni	719	Germaniya (79 ta) Hindiston (52 ta) AQSH (48 ta) Italiya (46 ta)

3 Манба: муаллиф таҳлили асосида ишлаб чиқилган.



Organik qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan "Organik qishloq xo'jaligi dunyosi" nomli statistik va tahliliy to'plamda keltirilishicha, 2019-yilda jahon bo'yicha 72,3 mln. gektar yerda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. Shundan, 49,6 %i yoki 35,9 mln. gektari Okeaniya, 22,9 %i yoki 16,5 mln. gektari Yevropa, 11,5 %i yoki 8,3 mln. gektari Lotin Amerikasi, 8,2 %i yoki

5,9 mln. gektari Osiyo, 5,0 %i yoki 3,6 mln. gektari Shimoliy Amerika va 2,8 %i yoki 2,0 mln. gektari Afrika qit'asi hissasiga to'g'ri kelgan (3-jadval).

3-jadval. Organik qishloq xo'jaligi yuritiladigan yer maydonlari bo'yicha qit'alarining ko'rsatkichlari [8].

Qit'alar	Organik qishloq xo'jaligi yer maydonlari, gektar	Jahon organik yer maydoni hajmida qit'alar salmog'i, %	Qit'alar jami qishloq xo'jaligi yerlarida organik maydonlar salmog'i, %
Okeaniya	35 881 053	49,6	9,6
Yevropa	16 528 677	22,9	3,3
Lotin Amerika	8 292 139	11,5	1,2
Osiyo	5 911 622	8,2	0,4
Shimoliy Amerika	3 647 623	5,0	0,8
Afrika	2 030 830	2,8	0,2
Jahon	72 285 656	100	1,5

Har bir qit'aning jami qishloq xo'jaligi yer maydonlarida organik mahsulotlar yetishtiriladigan yerlar salmog'i Okeaniyada 9,6, Yevropada 3,3, Lotin Amerikasida 1,2, Shimoliy Amerikada 0,8, Osiyoda 0,4 va Afrikada 0,2 %ni tashkil etgan.

Dunyoda organik mahsulotlarga bo'lgan talab kun sayin o'sib bormoqda. Organik bo'lmagan turlarga qaraganda ancha qimmatroq bo'lishiga qaramay, organik qishloq xo'jaligi nafaqat Qo'shma Shtatlarda, balki butun dunyoda muqobil dehqonchilikning eng mashhur turiga aylandi. Hatto Finlyandiya, Avstriya va Germaniya kabi Yevropa mamlakatlarida ham hukumatlar yer maydonining 20 foizini organik dehqonchilikka bag'ishlashga qaratilgan rejalar va siyosatlarni amalga oshirish bilan band. Janubiy Osiyoda Butan 2020-yilga borib 100 foiz organik mahsulotlarga o'tish bo'yicha ulkan rejalarga ega. Organik dehqonchilikka bosqichma-bosqich o'tish, asosan, biz iste'molchilar sifatida pestitsidlar va kimyoviy o'g'itlarni tasodifiy iste'mol qilishning sog'liqqa ta'siri haqida tobora ko'proq tashvishlanayotganimiz sabab bo'ldi deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Organik qishloq xo'jaligi – inson organizmi uchun xavfsiz, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishni ta'minlaydigan usul bo'lib, u barqaror rivojlanishning muhim jihatlariga javob beradi. Jahon bozorida organik mahsulotlarga yildan-yilga talab ortib borayotganligi sababli bu turdagi mahsulotlarni yetishtirish va eksport qilish mamlakatlar iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi. Organik qishloq xo'jaligi asosida mahsulotlar yetishtirish an'anaviy tarzda yetishtirilgan mahsulotlardan 2-4 barobargacha qimmat narxda sotilishi mumkin. Respublikada ham mazkur turdagi mahsulotlar yetishtirish hajmini oshirish va organik mahsulotlar yetishtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида"ги ПФ-158-сон Фармони. -Т.: "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2023 йил, 11 сентябр <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Республикаси Президентининг 2020 йил 18 майдаги "Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифат ва хавфсизлик кўрсаткичлари халқаро стандартларга мувофиқлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5995-сон Фармони. "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2020 йил, 18 май - <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. <https://lex.uz/docs/4815923>
4. А.В. Пешкова. Эффективность производства продукции органического сельского хозяйства//Автореферат дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. Москва-2013. - С. 8.



5. С.А. Харитонов. Организационно-экономические аспекты развития органического сельского хозяйства в России// Автореферат дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. Москва-2013. - С. 7.
6. М.Г. Колегов. Условия и факторы производства органической продукции растениеводства в Республики Коми// Автореферат дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. Сыктывкар-2014. -С. 8.
7. А.Ю. Егоров. Формирование и развитие рынка органической агропродовольственной продукции (на примере ЦФО) // Дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. Москва-2014. - С. 24.
8. The World of Organic Agriculture. Statistics and Yemerging Trends 2021. Research Institute of Organic Agriculture FiBL. <https://www.fibl.org/fileadmin/documents/shop/1150-organic-world-2021.pdf>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

